

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA KOLLIZION NORMALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Mahmudov Shaxboz

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Yurisprudensiya: biznes
huquqi yo'nalishi 4-bosqich talabasi**

Masharipova Naziraxon

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Yurisprudensiya: biznes
huquqi yo'nalishi 4-bosqich talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18814791>

Annotatsiya: Ushbu tezis hozirda mavjud turli mamlakatlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarda, chet el yuridik shaxslarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda turli xalqaro xususiy huquq tarmoqlarning to'qnash kelishi, bu munosabatlarda nizolar mavjudligi va ularni qanday hal qilinishida kollizion normalarning o'rni muhimligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Kollizion normalar, kollizion masalalar, huquqni qo'llash, milliy va xalqaro huquqlar, moddiy-huquqiy normalar, kollizion bog'lovchilar.

Chet el elementi bilan murakkablashgan shaxsiy va mulkiy munosabatlarga nisbatan qo'llanishi lozim bo'lgan huquq normalarining mohiyatini talqin qilish va qo'llanish xususiyatlarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Xalqaro aloqalarning kengayishi oqibatida sud, arbitraj, notarius, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etuvchi va boshqa davlat organlari faoliyatlari davomida xalqaro xususiy huquqning murakkab muammolari bilan yuzlashadilar, kollizion norma va ularni qo'llash bilan bog'liq qoidalar murakkab va muhim muammolar hisoblanadi.

Kolliziya – lotinchadan to'qnashuvchi ish degan ma'noni anglatadi. Qonunlar kolliziyasi, ular o'rtasida qo'llanishi lozim bo'lgan qoidani tanlash haqida so'z yuritiladi.

Kollizion muammo – u yoki bu huquqiy munosabatga nisbatan qo'llash uchun tegishli bo'lgan huquqni tanlash muammosidan iborat.

Kollizion norma atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, XX asrning boshlarida fon Savinining xalqaro aloqalar to'g'risidagi g'oyasi xalqaro xususiy huquq nazariyasi va amaliyoti asosini tashkil qildi, va jahondagi barcha davlatlar ushbu konseptual g'oya asosida o'z xalqaro huquqida ikki taraflama kollizion normalarni shakllantirgan. Shu davrga kelib kollizion tartibga solish qoidalariga norma maqomi berilgan.

Kollizion norma – bu muayyan huquqiy munosabatga nisbatan qaysi davlat huquqni qo'llash kerakligini belgilab beruvchi normadan iborat. Kollizion normalar boshqa huquq sohalari normalariga qaraganda ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, ular xalqaro xususiy huquqning asosini tashkil qiladi va moddiy-huquqiy nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Kollizion norma muayyan munosabatga nisbatan qaysi davlatning huquqi qo'llanishi mumkinligini ko'rsatib turadi. Kollizion normaning boshqa huquq sohalaridan farqi shundaki, uning vositasida qo'llanishi uchun kerak bo'lgan huquqni ko'rsatish yo'li bilan muammo bartaraf qilinadi. Misol uchun, Tailand qonuni bo'yicha 20 yoshga to'lmagan qiz ota-onasining rozilgisiz nikohdan o'tish huquqiga ega emas, O'zbekiston qonuni bo'yicha 18 yoshga to'lgan erkak yoki ayol ixtiyoriy ravishda nikoh tuzishlari mumkin. Chet el fuqarosi bilan O'zbekiston fuqarosi o'rtasida tuziladigan nikohning shartlari O'zbekiston qonunlari bilan belgilanadi. Agar O'zbekistonga tashrif buyurgan tailandlik qiz O'zbekiston yigiti bilan ota-onasining rozilgisiz

nikohdan o'tgan bo'lsa, bunday nikoh qanday baholanishi kerak, ya'ni u haqiqiy yoki haqiqiy emas deb topilishi kerakmi. Ushbu holatda O'zbekiston qonuni bo'yicha haqiqiy hisoblanadi, biroq Tailand qonuni bo'yicha haqiqiy emas topilishi mumkin. Bunday holatda kollizion normani aniqlash va uning yordamida tegishli davlat huquqini qo'llash talab qilinadi. Nikoh O'zbekiston hududida tuzilganligi uchun O'zbekiston qonuniga asosan qayd etiladi, nikohni bekor qilish Tailand qonuniga ko'ra Tailandda amalga oshirilishi mumkin. Bu holatda, asosan da'vo talab qilgan shaxsning shaxsiy qonuni qo'llanilishi lozim.

Kollizion normalarning o'ziga xosligini aniqlash uchun birinchi navbatda qator xususiyatli kollizion normalar tuzilishini aniqlab olish lozim. Kollizion normalarning tuzilishi o'z vazifasiga ko'ra moddiy-huquqiy normalardan farq qiladi. Har bir kollizion norma ikki qismdan iborat. Birinchi qismi kollizion normaning hajmi deb nomlanadi. Mazkur qismda kollizion norma qo'llanishi lozim bo'lgan tegishli huquqiy munosabatlar: mulkiy, shaxsiy nomulkiy, oilaviy munosabatlar, shartnomaga asoslangan yoki asoslanmagan munosabatlar haqida so'z yuritiladi. Kollizion normaning ikkinchi qismi qo'llanish tartibiga ko'ra kollizion bog'lovchi deb yuritiladi. Kollizion bog'lovchi muayyan munosabatlarga nisbatan qo'llanadigan huquq tizimini yoki qonunni ko'rsatuvchi qismdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida bog'lovchi kollizion normalarni xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan tatbiq etuvchi moddalarida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, fuqarolar ishtirokidagi munosabatlarni tartibga solishda jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni, yuridik shaxsning huquq layoqati, shartnoma tuzish joyiga nisbatan qo'llanadigan huquq, vorislikka qo'llanadigan huquq va boshqa moddalarni misol qilib keltirish mumkin. Kollizion normaga ko'ra meros bo'yicha munosabatlar merosxo'r doimiy turar joyiga ega bo'lgan mamlakat huquqiga ko'ra belgilanadi. Shuningdek, har bir davlatning kollizion normalarida chet ellik fuqarolarning huquqiy layoqati o'sha davlat fuqarosi bo'lgan mamlakatning huquqiga ko'ra belgilanadi.¹

Kollizion masalalarni hal etishda ko'maklashuvchi kollizion bog'lovchi normalar bo'lib, unga asosan tartibga solinishi lozim bo'lgan munosabatlarga qaysi davlatning huquqi qo'llanishi lozimligini ko'rsatadi. Kollizion normani qo'llash orqali munosabatlarni huquqiy tartibga solishning yakuniy natijalarini kollizion bog'lovchi normalar belgilaydi.

Kollizion bog'lovchi normalar ikki shaklda amalga oshiriladi. Bunda muayyan davlat huquqining qo'llanishi ko'rsatish mumkin. Ko'p hollarda mazkur kollizion norma qabul qilingan mamlakat huquqi bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda mazkur kollizion norma qabul qilingan mamlakat huquqi bo'lishi mumkin. Biroq qo'llanayotgan huquq aniqlanishi mumkin bo'lgan umumiy belgini ham ko'rsatish mumkin.

Qonun bo'yicha kollizion normalar bir tomonlama va ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Kollizion normani ikki tomonlama bog'lashda sudlov mamlakati huquqi va, shuningdek chet el mamlakati huquqini qo'llash, kollizion normani bir tomonlama bog'lashda esa bir tomonning huquq normasini qo'llash bilan cheklanadi, amalda ko'proq sudlov mamlakati huquqini qo'llash yuz beradi. Kollizion normani bir tomonlama qo'llanish uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1199-moddasi misol bo'lishi mumkin. Ushbu moddaga binoan ko'chmas mulkka vorislik mazkur mulk joylashgan mamlakat huquqi bo'yicha O'zbekiston

¹ Xalqaro xususiy huquqda kollizion normalar [Matn]: o'quv qo'llanma / Xazratqulov Odilbek Tursunovich. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2024. 120 b.

Respublikasining reyestrda qayd etilgan mol-mulkka vorislik esa O'zbekiston Respublikasining huquqi bo'yicha belgilanadi.² Bu yerda kollizion normani bir tomonlama qo'llash ikki holatda ro'y bermoqda:

a) ko'chmas mulk, masalan, yer, qurilmalar, uy-joylar, ko'p yillik o'simliklar, daraxtlar va yer bilan uzviy bog'lik, boshqa mulklar qaysi davlat hududida joylashgan bo'lsa, o'sha davlatning huquqini qo'llash;

b) mol-mulk ko'char yoki ko'chmas bo'lishidan qat'i nazar, u O'zbekistonda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lsa (masalan, daryoda foydalanadigan kater va qayiqlar, avtomashina, traktor va h.k.), ularga vorislik O'zbekiston Respublikasining huquqi bo'yicha belgilanadi.

Kollizion normaning ikki tomonlama bo'lishiga, misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1197-moddasini keltirishimiz mumkin. Mazkur moddaga binoan meros qoldiruvchi vasiyatnomada o'zi fuqarosi bo'lgan mamlakatning huquqini tanlagan bo'lmasa, meros tartibi meros qoldiruvchi oxirgi doimiy turar joyga ega bo'lgan mamlakatning huquqi bo'yicha belgilanadi. Bu yerda meros qoldirish bo'yicha ikki mamlakat huquqini qo'llash mumkinligi nazarda tutilmoqda³.

Xulosa qiladigan bo'lsak, kollizion normalar xalqaro xususiy huquqning ajralmas qismi hisoblanib, turli davlatlar qonunchiligi o'rtasidagi nizolarni hal qilishdagi asosiy yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi. Kollizion normalar moddiy-huquqiy masalalarni bevosita hal qilmasada, nizoni tartibga solishning huquqiy yo'nalishini belgilaydi. Kollizion norma vositasida qo'llanishi uchun kerak bo'lgan huquqni ko'rsatish yo'li bilan muammo bartaraf qilinadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 343 b.
2. Xalqaro xususiy huquqda kollizion normalar [Matn]: o'quv qo'llanma / Xazratqulov Odilbek Tursunovich. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2024. 120 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1199-modda.

² O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

³ Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 343 b.